

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TALABALARNING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING MUHIMLIGI

*Namangan davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti
Moliya sohasida boshqaruv yo`nalishi 2- bosqich talabasi*

Narullayev Omonulloxon Nodirjon o`g`li

E-mail: omonulloxon0408@gmail.com

Tel: +998949874707

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida talabalar uchun moliyaviy savodxonlikning ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli moliyaviy texnologiyalar, elektron to'lov tizimlari, onlayn banking, kriptovalyutalar va investitsiya platformalari kabi yangi iqtisodiy vositalarning keng tarqalishi sharoitida yosh avlodning moliyaviy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish zarurligi asoslab beriladi va moliyaviy bilimlarni shakllantirish yo'llari batafsil yoritiladi. Maqolada zamonaviy ta'limda moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish strategiyalari va amaliy takliflar keltirilgan.

ВАЖНОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Аннотация. В этой статье анализируется важность финансовой грамотности для студентов в цифровой экономике. В условиях широкого распространения новых экономических инструментов, таких как цифровые финансовые технологии, электронные платежные системы, онлайн-банкинг, криптовалюты и инвестиционные платформы, обосновывается необходимость формирования у подрастающего поколения навыков принятия финансовых решений, подробно освещаются пути формирования финансовых знаний. В статье представлены стратегии и практические предложения по развитию финансовой грамотности в современном образовании.

THE IMPORTANCE OF IMPROVING THE FINANCIAL LITERACY OF STUDENTS IN THE CONDITIONS OF THE DIGITAL ECONOMY

Abstract. This article analyzes the importance of financial literacy for students in the context of the digital economy. In the context of the widespread use of new economic tools such as digital financial technologies, electronic payment systems, online banking, cryptocurrencies and investment platforms, the need for the formation of financial decision-making skills of the younger generation is justified, and the ways

of shaping financial knowledge are covered in detail. The article presents strategies and practical proposals for the development of financial literacy in modern education.

Kalit soʻzlar: raqamli iqtisodiyot, moliyaviy savodxonlik, talabalar, fintech, raqamli texnologiyalar, moliyaviy xavfsizlik.

KIRISH

XXI-asr yangi texnologiya va innovatsiyalar asrida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi moliyaviy tiziminiham eʼtibordan chetda qoldirmadi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi moliya tizimida: onlayn-banking, elektron hamyonlar, kripto-valyutalar, mobil investitsiya platformalari va mikrokreditlar kundalik vositalarga aylanib bormoqda. Bu tizimlardan foydalanuvchilarning aksariyati yosh avloddan iborat boʻlib, yoshlar raqamli xizmatlarning eng faol foydalanuvchilari sifatida, ayniqsa, bilim etishmasligi tufayli moliyaviy xavf-xatarlarga duch kelayotganini koʻrishimiz mumkin.

Metodlar. Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan bir paytda talabalarning moliyaviy savodxonligini oshirish va ularda moliyaviy koʻnikmalarni yanada rivojlantirish yoʻllari yoritilgan.

Natijalar. Raqamli iqtisodiyot sharoitida talabalarning moliyaviy savodxonligining oshirish va ulardan moliyaviy koʻnikmalarni shakillantirish kabi jarayonlarning tahlil qilishdan avval moliyaviy savodxonlik tushunchasiga taʼrif berish lozim.

Moliyaviy savodxonlik – bu shaxsning moliyaviy bilimlarga ega boʻlishi, ushbu bilimlarni kundalik hayotda qoʻllay olish koʻnikmasi hamda moliyaviy qarorlarni ongli ravishda qabul qilish salohiyatidir.¹

Moliyaviy savodxonlik uch komponentadan iborat:

- **Bilim** – moliyaviy mahsulotlar, xizmatlar, vositalar, tushunchalar haqidagi bilimlar (kredit, depozit, inflyatsiya, foiz stavkasi va h.k.).

- **Koʻnikma** – byudjet tuzish, jamgʻarma qilish, kreditdan foydalanish, soliq toʻlovlarini tushunish.


- **Xulq-atvor** – masʼuliyatli qaror qabul qilish, xarajatlarni nazorat qilish, firibgarliklardan saqlanish.

Moliyaviy savodxonlik yaʼni moliyaviy bilimlar talabalarga qanday darajada muhim va ahamiyalik?

Ushbu savolga biz ikki daraja yuzasidan javob beramiz.

1. **Shaxsiy darajada.**

¹ OECD. *Financial Literacy Framework* (2023)



2. Jamiyat darjasida.



Raqamli iqtisodiyot va moliya tizimidagi xavf-xatarlar

Raqamli iqtisodiyot nima?

Raqamli iqtisodiyot bu – axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan iqtisodiy faoliyat tizimi bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:²

- elektron to'lov tizimlari (Payme, Click, PayPal, Apple Pay);
- onlayn-banking;
- kriptovalyutalar (Bitcoin, Ethereum);
- mobil ilovalar orqali investitsiyalar (Binance, Robinhood);

² S. Lusardi & O. Mitchell (2014). *The Economic Importance of Financial Literacy*.

- moliyaviy texnologiyalar (FinTech).

Moliyaviy xavf-xatarlar.

Talabalar raqamli moliyaviy xizmatlardan faol foydalanuvchilar bo‘lishlariga qaramay, quyidagi xavf-xatarlar mavjud:

- Firibgarlik va phishing hujumlari;
- Raqamli kreditlar va qarzдорlikka tushib qolish xavfi;
- Moliyaviy qarorlarni noto‘g‘ri baholash;
- Kriptovalyutalarda yo‘qotishlar.

Shu kabi moliyaviy xavf-xatarlarni, talaba yoshlar orasida keng tarqalgani sababli, raqamli vositalar bilan birga moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish zarur.

XULOSA

Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy savodxonlik – bu shunchaki bilim emas, balki hayotiy zaruratga aylangan vositadir. Ayniqsa talabalar kabi faol ijtimoiy qatlam uchun bu bilimlar ularning kelajakdagi iqtisodiy barqarorligi va mustaqilligini belgilab beradi. Shu bois oliy ta‘lim tizimida moliyaviy savodxonlikni oshirishga kompleks yondashuv zarur. Talaba yoshlar orasida moliyaviy savodxonlik bilimlari va ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun quyidagi jarayonlarni amlaga oshirish zarurdir.

Bu jarayonlar quyidagilar:

- ✓ **Oliy ta‘lim muassasalarida** “Moliyaviy savodxonlik asoslari” fanini joriy etish;
- ✓ **Interaktiv onlayn platformalar** (simulyatorlar, testlar) orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish;
- ✓ **Banklar va moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikda seminarlar** o‘tkazish;
- ✓ **Talabalar uchun moliyaviy mobil ilovalardan foydalanishni o‘rgatish;**
- ✓ **Raqamli xavfsizlik bo‘yicha maxsus kurslar** tashkil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. OECD (2023). Financial Literacy and Financial Education: OECD Insights.
2. Jahon banki (2022). Global Financial Literacy Survey Report.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy savodxonlik bo‘yicha maxsus hisobotlar.
4. S. Lusardi & O. Mitchell (2014). The Economic Importance of Financial Literacy.
5. IMF (2021). Digital Financial Inclusion in Emerging Markets.
6. Центральный банк Республики Узбекистан. (2024). Отчёт о финансовой грамотности молодежи
7. Всемирный банк. (2022). Global Findex Database
8. Lusardi, A. & Mitchell, O. (2014). The Economic Importance of Financial Literacy
9. Fintech Futures Report. (2023). Digital Finance and Youth Inclusion
10. OECD. Financial Literacy Framework (2023)